



O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHI VA UNING IQTISODIYOT UCHUN IMKONIYATLARI VA XATARLARI.

Ibragimova Gulnoza Ulug'bekovna

TDIU, Menejment fakulteti talabasi

gulnozaibragimova095@gmail.com

Negmurodova Mulkiya Rustamovna,

TDIU, Moliya Fakulteti talabasi

mulkiyanr@gmail.com

Xolmurotova Jasmina Jamshid qizi

TDIU, Menejment fakulteti

beknazarovajasmina840@gmail.com

Annotatsiya: maqolada O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti a'zosiga aylanishi va bu bilan birga jahondagi bir qator mamlakatlar bilan olib borayotgan bevosita savdosi orqali iqtisodning o'sishiga katta hissa qo'shilayotganligi haqida to'liq yoritiladi. Shu bilan birgan Jahon savdo tashkiloti umumiy holda a'zo davlatlarga yaratayotgan bir qator qulayliklari va global savdoni tartibga solishi tufayli ko'plab mamlakatar yildan yilga bu tashkilotga a'zo bo'layotganiga e'tibor qaratishimiz mumkin. Undan tashqari maqolada O'zbekistonning boshqa chet mamlakatlar bilan olib borayotgan savdo aloqalari so'nggi statistikalarga ko'ra tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: liberallashtirish, eksport, import, diversifikatsiya, savdo aylanmasi dinamikasi, AQSH, XXR, BAA, nomonetar, global bozor, diskriminatsiya.

Kirish

Jahon savdo tashkiloti xalqaro tashkilot bo'lib, a'zo davlatlar o'rtasida savdo shartnomalarini muzokaralar olib borish va amalga oshirish uchun asos yaratib, global savdoni tartibga soladi. Tashkilotning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni,



rivojlanishni va global farovonlikni oshiradigan savdo-sotiqning iloji boricha silliq va erkin haraktlanishini ta'minlashdir. Jahon savdo tashkiloti asosan a'zo mamlakatlar o'rtasidagi savdo kelishuvlarini, muzokaralarni olib borish va amalga oshirish uchun asos yaratish orqali global savdoni amalga oshiradi. Uning asosiy tamoyillari diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, adolatli raqobat va global savdo hamkorligini rag'batlantirish uchun savdo to'siqlarini bosqichma-bosqich kamaytirishdir. 2024-yil, avgust oyi holatiga ko'ra Jahon savdo tashkiloti ga 166 ta davlat a'zolikni qo'lga kiritgan va dunyo bo'ylab savdoning 98% bu tashkilot orqali amalga oshirilib kelinmoqda¹. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zoligi 1994-yildan boshlangan. Ammo o'sha vaqtda olib borilgan "o'zini o'zi ta'minlash" siyosati tufayli, 2005-yilda tashkilotga a'zolik to'xtatilgan. 2018-yilga kelib, Prezident Mirziyoyev tomonidan olib borilgan iqtisodiyotni liberallashtirish va ichki savdo rejimini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlar doirasida tashkilotga a'zolik qayta tiklandi². Liberallashtirish jarayoni O'zbekistondan Jahon savdo tashkilot bitimlari va O'zbekiston Jahon savdo tashkiloti a'zolari bilan oxir-oqibat muzokaralar natijasida olgan majburiyatlariga muvofiq barcha sohalarga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy savdo bilan bog'liq bir qator islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi. 2019- yilda O'zbekiston o'zining yangilangan tashqi savdo memorandumini Jahon savdo tashkilot a'zolariga, tashkilot a'zo bo'lish to'g'risidagi boshqa bir qator hujjatlar, shu jumladan tovarlar va xizmatlar bo'yicha bozorga kirish bo'yicha dastlabki takliflarini namoyish qildi va bosqichma-bosqich uyushtirilgan uchrashuvlar orqali tashkilotga to'liq kirish ko'zda tutilmoqda.

Jahon savdo tashkilotiga a'zolik O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishini ta'minlaydi va yana ochiq va shaffof iqtisodiyotni shakllanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga turli xil savdo to'siqlarini qisqartiradi va

¹ <https://share.google/dWpWSI9vHFEe5aFjY>

² https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/o%E2%80%98uzbekistonning-jahon-savdo-tashkiloti-jstga-%E2%80%99zo-bo%E2%80%98lish-jarayoniga-ko%E2%80%98maklashish_uz?s=233



bu xorijiy kompaniyalarning O'zbekiston bozoriga kirishini osonlashtiradi. Ushbu kuchaygan raqobat ba'zi O'zbekiston kompaniyalariga bosim o'tkazishiga qaramasdan, qisqa muddatda mamlakat ichidagi aksiyalar narxlarining pasayishiga sabab bo'ladi. Shu tariqa, raqobat davri bir qancha innovatsiyalar va samaradorlikni keltirib chiqaradi, natijada muvaffaqiyatli O'zbekiston kompaniyalari va ularning aksiyalari narxлари sezilarli foydani keltirib chiqaradi. O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hozirgi vaqtda savdo to'siqlari bilan himoyalangan tarmoqlardagi kompaniyalar raqobat kuchayganligi sababli o'z aksiyalari narxini pasaytiradi. Aksincha, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlardagi kompaniyalar tashqi bozorlarga chiqishni osonlashtirib, o'z aksiyalari narxini oshiradi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekiston fond bozorining yanada diversifikatsiyalangan va mustahkam bo'lishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiyotning jahon bozori bilan yanada integratsiyalashgani sari kengroq sarmoyadorlarni jalb qiluvchi va fond bozorida uzoq muddatli o'sishga olib keladigan yangi investitsiya imkoniyatlari paydo bo'ladi. Fond bozoriga aniq ta'sirni oldindan aytish qiyin bo'lsada, bu O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish muammolari va imkoniyatlarini qay darajada samarali boshqarishiga bog'liq hisoblanadi. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni va uning muayyan tarmoqlarga ta'siri haqidagi yangiliklar va tahlillarni diqqat bilan kuzatib, investorlar O'zbekiston fond bozori haqida asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Ushbu savollarni ko'rib chiqish orqali mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining kengroq iqtisodiy oqibatlarini va uning mamlakat moliya bozorlari, iqtisodiy o'sishi va umumiy rivojlanish traektoriyasiga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlar berishi mumkin. O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi mamlakat iqtisodiy yo'nalishida muhim bosqich bo'ladi. O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi orqali jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq integratsiyalashib



borayotgan bir paytda, uning ichki fond bozoriga potentsial ta'siri muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining mamlakat iqtisodiyoti uchun yaratadigan imkoniyatlari va keltirishi mumkin bo'lgan xatarlarini ko'rib chiqadi. Jahon savdo tashkilotiga a'zolik iqtisodiyotning turli tarmoqlariga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan savdoni liberallashtirish majburiyatini nazarda tutadi. O'zbekiston o'z bozorlarini xalqaro savdo uchun ochar ekan va Jahon savdo tashkiloti standartlariga moslashish siyosatini qabul qilar ekan, ichki fond bozorining ishlashi va dinamikasiga ta'sir ko'rsatishi kutiladi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish natijasida tartibga solinadigan qoidalar, savdo tartibi, xorijiy investitsiyalar oqimi va umumiy iqtisodiy o'sishi investorlarning kayfiyatiga, bozor bahosiga va O'zbekiston fond birjasidagi savdo faolligiga ta'sir qiladi. Shu sababli ham bu ta'sirlarni kamaytirish va tartibga solish uchun kerakli qonunlar ishlab chiqilmoqda. Ilmiy tadqiqot davomida, tashkilotga a'zolik orqali O'zbekiston iqtisodiy barqarorligining qay darajada oshirilishi va shu bilan birgalikda bu jarayon davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ba'zi xavf-xatarlarni tahlil qilish orqali o'rganamiz.

Xususan 2023-yil 14-aprel kuni davlatimiz rahbari Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlari va istiqbollari o'ld oid taqdimot bilan tanishdi va bu tashkilotga a'zolik mamlakatimiz uchun zarur ekanligini ta'kidlab, bu jarayonning iqtisodiy ahamiyatlariga ham alohida to'xtaldi. Prezidentimiz ta'kidlashi bo'yicha kelgusi uch yilda tayyor mahsulot eksporti 2 baravarga oshirish reja qilingan va bunga erishishning birdan bir yo'li – Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish. Bu 164 ta davlat bilan adolatli savdo tizimini yo'lga qo'yish va barqaror bozorlarni yaratish imkonini beradi deya ta'kidlagan. Yurtboshimizning o'tgan yilgi murojaatnomasida tashkilot a'zolikni jadallashtirish haqida aytib o'tilgan bo'lib, o'sha yilning o'zida 50 ta davlat bilan ikki tomonlama savdo aloqalari amalga oshirildi. Bu yondashuvdan ham bilishimiz mumkinki, 2016-yilda ilk bor bu tizimni tiklashga harakat ham iqtisodiyotimiz uchun katta o'sishni amalga oshirish uchun boshlangan.



Shu davrdan boshlab xorijiy davlatlar bilan nafaqat tashqi siyosiy aloqalar balki xalqaro savdo ham qadamma – qadam yo'lga qo'yila boshlagan. Bugungi kunga kelib O'zbekiston jahonning 150 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo aylanmasining nisbatan salmoqli hissasi Rossiya (16,9%), Xitoy (16,8%), Qozog'iston (8,3%), Koreya Respublikasi (6,7%), Turkiya (5,8%), Qirg'iz Respublikasi (2,3%) va Germaniyada (2,1%) qayd etilgan³.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola davomida O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan olib boradigan tashqi savdosi va savdo aylanmalariga oid so'nggi ma'lumotlar orqali jamlangan statistikasi umumlashtirilgan holdagi tahlilini ko'rib o'tamiz. Maqolada 2025-yil olib borilgan jami savdo hajmini undan oldingi yillarga taqqoslab o'rganilganini ham guvohi bo'lishingiz mumkin. Shu bilan birga maqolada O'zbekistonning eng katta savdo hamkorlari va eksport hajmining ham eng ko'p qismi qaysi davlatlar tegishli ekani haqida ham aniq statistik ma'lumotlar keltirilgan.

Tahlil va natijalar

Давлатлар	2023 й.	2024 й.	2025 й.
Хитой	5 300,9	5 892,9	6 556,8
Россия Федерацияси	4 441,4	5 729,4	6 028,3
Қозоғистон	2 197,4	1 913,6	2 210,3
Туркия	1 562,2	1 450,1	1 340,0
Корея Республикаси	1 038,4	1 068,9	837,1
Афғонистон	371,8	458,0	723,3
Франция	388,6	606,9	709,9
Германия	932,9	508,0	647,2
Ҳиндистон	286,5	402,7	641,4
БАА	271,8	275,5	554,3
Туркменистон	444,5	622,7	464,1
Қирғизистон	486,0	381,5	430,2
АҚШ	282,0	467,5	421,7
Беларусь	297,1	320,4	410,1
Тожикистон	351,9	311,5	322,3
Покистон	177,8	206,5	253,7
Эрон	265,2	221,5	221,9
Словения	54,2	113,8	209,4
Италия	237,0	218,9	205,5
Литва	342,6	402,0	203,5


1-rasm. O'zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (yanvar-iyun, mln AQSH dollarida)⁴.

³ <https://www.gazeta.uz/oz/2020/04/22/foreign-trade/>

⁴ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/62737-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2025-yil-yanvar-may-2>




Hozirgi kunga kelib O'zbekiston jahonning 194 mamlakati bilan tashqi savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Berilgan jadvalda O'zbekistonning 2023–2025 yillar davomida asosiy hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi (mln AQSh dollarida) dinamikasi aks ettirilgan. Umumiy statistika shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning tashqi savdo aloqalari yildan-yilga o'zgarib, ayrim davlatlar bilan o'sish, boshqalar bilan esa qisqarish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Eng yirik savdo hamkori — Xitoy bo'lib, 2023 yilda 5 300,9 mln dollarni tashkil etgan ko'rsatkich 2025 yilda 6 556,8 mln dollarga yetgan. Bu o'sish O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning chuqurlashib borayotganini bildiradi. Rossiya Federatsiyasi bilan ham savdo hajmi yuqori bo'lib, 2023 yildagi 4 441,4 mln dollar 2025 yilda 6 028,3 mln dollarga yetgan. Bu ikki davlat O'zbekistonning eng muhim savdo sheriklari sifatida yetakchilikni saqlab qolmoqda. Qozog'iston, Turkiya, va Koreya Respublikasi bilan savdo hajmida esa ayrim pasayishlar kuzatiladi. Masalan, Koreya bilan 2024 yilda 1 068,9 mln dollar bo'lgan ko'rsatkich 2025 yilda 837,1 mln dollargacha tushgan. Bu esa ba'zi iqtisodiy omillar yoki import-eksport tarkibidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, Afg'oniston, Hindiston, va BAA bilan savdo aylanmasi sezilarli darajada o'sib borgan. Xususan, Afg'oniston bilan savdo 2023 yildagi 371,8 mln dollardan 2025 yilda 723,3 mln dollarga ko'tarilgan. Bu O'zbekistonning Janubiy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy integratsiyasining kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Yevropa davlatlari orasida Fransiya va Germaniya bilan ham savdo hajmi ortgan bo'lsa, Litva va Italiya bilan aloqalarda biroz pasayish kuzatilmoqda.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida eksport hajmi (2025-yil yanvar-iyun, mln AQSh dollari)⁵.



Mamlakatimizning 2025-yilning 1-yarim yilligida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlari Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Afg'oniston, Turkiya, Fransiya, BAA, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston, Pokiston va boshqa mamlakatlar bo'ldi. Eng ko'p tovarlar eksporti Rossiya Federatsiyasi bilan amalga oshirilgan va bu jami eksport hajmining 12,1 % ini tashkil qiladi hamda eksportning umumiy miqdori 2051,1 mln aqsh dollariga yetadi. Xitoy Xalq Respublikasiga chiqarilayotgan tovarlar hajmi umumiy eksportning 5.4% ini tashkil qilib, jami 906,1 mln dollarlik tovar eksport qilindi. Keyingi peshqadamlardan Qozog'iston jami hisobda 676,4 mln aqsh dollarlik tovar va xizmatlarni qabul qilib, umumiy ekport miqdorining 4% ini tashkil qildi. Shu bilan birga Afg'oniston 603,7 mln AQSH dollari, Turkiya 507,8 mln, Fransiya 481,3 mln, BAA 300,8 mln, Qirg'iz Respublikasi 266,2 mln, Tojikiston 242,2 mln, Pokiston 173,7 mln and boshqa davlatlar bilan 10 677,4 mln AQSH dollarlik eksport amalga oshirilgan. Shu ma'lumotlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki O'zbekiston berilgan 6 oylik mobaynida 16 644,5 mln AQSH dollarlik miqdordagi tovar va xizmatlarni chet davlatlarga eksport qilgan. Ta'kidlab o'tish joizki, jami eksportning katta qismini nomonetar oltin eksporti egallaydi va bu sur'at yildan yilga peshqadamlik qilib, o'sib bormoqda.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida import hajmi (2025-yil yanvar-iyun, mln AQSh dollari)⁶.



O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi dinamikasi ortib borishi eksport bilan birgalikda importga ham bevosita bog'liq. O'zbekistonning 2025-yil yanvar–iyun oylaridagi import hajmi davlatlar kesimida (mln AQSh dollarida) berilgan grafikda ko'rsatib o'tilgan. Tahlilga ko'ra, O'zbekistonning asosiy import hamkorlari sifatida Xitoy (XXR), Rossiya, Qozog'iston va Turkiya yetakchi o'rinlarni egallagan. Eng katta import hajmi Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri keladi — 5 650,7 mln dollar. Bu raqam Xitoyning O'zbekiston iqtisodiyotida yetakchi texnologik va sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchisi sifatida muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Rossiya Federatsiyasi esa 3 977,2 mln dollar bilan ikkinchi o'rinni egallamoqda. Bu ikki mamlakat O'zbekistonning umumiy importining katta qismini tashkil etmoqda, bu esa energiya resurslari, mashinasozlik, texnika va kimyo mahsulotlari importi bilan bog'liq. Qozog'iston bilan import hajmi 1 533,9 mln dollarni tashkil etdi va u O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi asosiy savdo hamkorlaridan biri hisoblanadi. Undan tashqari mamlakatimiz Turkiya (832,2 mln dollar) va Koreya Respublikasi (816,5 mln dollar) bilan ham iqtisodiy aloqalari barqaror bo'lib, asosan sanoat tovarlari, kiyim-kechak, elektronika va tibbiy mahsulotlar importi ustunlik qiladi. Germaniya, Hindiston, va Turkmaniston kabi davlatlar bilan import aloqalari nisbatan kamroq, lekin o'sish tendensiyasi mavjud. Shu bilan birgalikda AQSh (294,8 mln dollar) va Belarus (322,2 mln dollar) bilan ham import hajmi past, ammo ular mamlakatimizga yuqori texnologiyali mahsulotlar va uskunalarni yetkazib berishda muhim rol o'ynab kelmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan savdo aloqalari O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zoliqini yanada mustahkamlashga yordam bermoqda. Xitoy, Rossiya, Qozog'iston kabi asosiy savdo hamkorlar bilan o'sib borayotgan savdo hajmlari mamlakatning eksport-import salohiyati kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Yevropa va Osiyo davlatlari bilan aloqalarning mustahkamlanishi O'zbekistonning



global bozor tizimiga moslashuvini tezlashtirmoqda. Jahon savdo tashkilotiga a'zolik O'zbekiston uchun xalqaro savdo qoidalari asosida faoliyat yuritish, sarmoyadorlar ishonchini oshirish va eksportni diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda. Biroq bu jarayon ichki bozor raqobatini kuchaytirishi, ba'zi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi talablar va bosimlar keltirib chiqarishi ham mumkin. Shunday bo'lsa-da, statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatini bosqichma-bosqich erkinlashtirib, xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashadi. Shunday qilib, Jahon savdo tashkiloti a'zoli O'zbekiston uchun nafaqat yangi imkoniyatlar, balki raqobatbardosh iqtisodiy o'sishning strategik bosqichi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://share.google/dWpwSI9vHFEe5aFjY>
https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/o%E2%80%99uzbekistonning-jahon-savdo-tashkiloti-jstga-%E2%80%99zo-bo%E2%80%99lish-jarayoniga-ko%E2%80%99maklashish_uz?s=23
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/04/22/foreign-trade>
4. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/62737-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2025-yil-yanvar-may-2>
5. <https://stat.uz>
6. <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>
7. BMT Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD). (2022). Dunyo investitsiyalari hisobot 2022: Barqaror tiklanishga investitsiyalar. BMT. Olingan manba: <https://unctad.org/>